

MAKTABGACHA TA'LIMDA KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA, YA'NI (3-4YOSHLI) BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISH USULLARI

Toshtemirova Sevinch Azamat qizi

*Samarqand davlat chet tillar instituti Ingliz tili 2 fakulteti
Maktabgacha va Boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi.*

Ilmiy rahbar: N.N. Zubaydova

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'limdagi quyi guruhlariga ya'ni 3-4 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatishning samarali va esda qolarli usullari haqida so'z yuritilgan.

Annotation: In this article talks about effective and memorable ways to teach English to the subgroups of preschool education, namely 3-4-year-old children.

Kalit so'zlar: metod, kommunikativ texnologiyalar, ertak va qo'shiqlar, pantamimika, multfilm.

Keywords: method, communicative technologies, animals, fairy tales and songs, pantomime, animals, cartoon.

Hozirgi kunda chet tillariga bo'lgan talab kuchayib bormoqda. Maktabgacha ta'limda umumiy o'rta ta'limda, oliy ta'limda, oliy ta'limdan keyingi ta'limda ham ingliz tiliga bo'lgan e'tibor qiziqish ortgan. So'nggi yillarda chet tillarini o'rganish qiziqish emas, balki zaruriyat bo'lib bormoqda, chunki hozirgi kunda til o'rganish faqat o'qish uchun emas, balki yangi texnologiyalardan foydalana olish, dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lish uchun ham kerak. Bundan bir necha yil oldin chet tillarini bilish faqatgina ba'zi sohalarga talluqli edi. Hozirda esa har bir sohaga tegishli.

Chet tillarini o'rganishda o'quvchining yoshi muhim. Bolalarga kichik yoshidan boshlab tilni o'rgatsak bolaning o'rganishi ham osonroq bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda maktabgacha ta'limning har birida chet tillarini o'rgatuvchi to'garaklar tashkil qilingan. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi -bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni maktabga tayyorlash. Shularni inobatga olgan holda, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga, shu bilan birga "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu hujjatlarda maktabgacha ta'lim tizimi tarmog'ini yanada kengaytirish, bolalarni o'qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan. Maktabgacha ta'lim, yoshlarimiz ta'lim va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi.

Chet tillarini o'rgatishda asosan kommunikativ texnologiyalardan foydalanish kerak, ya'ni audio ilovalar, vediolar, multimedialar, bundan tashqari, ertak, hikoya va turli xil ko'rgazmali qurollar yordamida o'rgatish foydalidir. Bolalar ko'proq taqlid qilish orqali o'rganishadi. Kichik yoshidagi bolalarga multfilmlarni ko'rib ingliz tilini o'rganish qiziqarliroq, chunki ularning ong ostida multfilm qahramonlarining har bir aytgan so'zlari fonetik jihatdan to'g'ri shakllanadi va to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishadi. Bolalarga hayvonlarning, mevalarning nomlaridan va boshqa kundalik hayotda ishlatiladigan so'zlardan foydalanib ertak va hikoyalar tuzib o'rgatsak ular uchun yanada foydali va oson bo'ladi, chunki bolalar ertak orqali ko'p narsani o'rganishadi. Pantamimika o'yini orqali ham kichik yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish mumkin. Misol uchun: samalyotni yoki ayiqni ko'rsatib berib ularning ingliz tilidagi nomini so'rash orqali. Bolalar o'yinqaroq bo'lganligi uchun biz ko'rsatgan harakatlarni qaytaradi va yangi so'zlarni o'rganadi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda ya'ni 3-4yoshli bolalarga chet tilini o'qitishda asosan o'yin va kommunikativ-texnologiyalar usulidan foydalanish yaxshiroq. Chunki kichik yoshdagi bolalar hali yaxshi o'qish va yozishni bilishmaganli sababli ko'proq tinglash orqali o'rganishadi. O'quvchiga qay tarzda o'rgatish esa pedagogikning mahoratiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'rsida"gi PQ - 4312- sonli qarori.
3. Ungbayeva Mohichehra Mahmatkarimovnaning "Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet-tili o'qitishning samarali usullaridan foydalanish imkoniyatlari".
4. <https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>.